

KITOB HAYOTNI YARATUVCHI MURABBIY.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy hodimi

Davranova Malikaxon

Shavkat Mirziyoyev: Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual
salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir.

Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo'li esa bitta – kitob o'qishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mutolaa haqida fikr bildirib, jumladan, shunday degandi: "... hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yana-da oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi".

"Kitob — bilim manbai", deymiz. Bu isbot talab qilmas haqiqat. Zero, inson bilimni asosan kitob orqali oladi, uning tarbiyasi ham kitob yordamida shakllanadi. Yoshlarimiz badiiy adabiyotlarni o'qiganda, ularning dunyoqarashi kengayadi, hayotga munosabati o'zgaradi.

Zero, kitob — qalb chirog'i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, kitobdan taraladigan va elektron nashrdan topib bo'lmaydigan o'ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo'jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko'ngil cheksiz zavqqa to'lgan holda kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikr almashishning huzur-halovati tamoman o'zgachadir. Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, "Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir". Shu ma'noda, shaklidan qat'i nazar, barcha kitoblar



milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

Alisher Navoiy hazratlari deydilarki, "Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Xalqimizda kitob o'qib, munosib ta'lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanishning ahamiyatiga doir maqollar ham juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Baxt belgisi – bilim", "Bilim – aql chirog'i", "Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar", "Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq", "Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol". Bunday purhikmat naqlarni uzoq davom ettirish mumkin. Bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda maktablarning roli beqiyos ekanligi hech birimizga sir emas. Kitob — insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va mukaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobta muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

Kishining madaniyati uning kitobida aks etadi. Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog'liq. Ma'rifatli oilalarda kitobga e'tibor farzandlar tarbiyasida qo'l keladi. Inson o'zining fikrlash qobiliyati, ma'naviyat dunyosi bilan tirik. Odamni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi omillardan biri ham uning ma'naviyati hisoblanadi.

Xo'sh, biz insonlar ma'naviy ozuqani qaerdan olamiz? Albatta, "bilimlar manbai" bo'lmish kitobdan. Kitob – bebaho boylik ekani barchamizga ma'lum. Birorta san'at turini televidenie va radio, zamonaviy kompyuterlar imkoniyati va afzalliklarini inkor qilmagan holda aytish mumkinki, bularning hech biri kitob o'rnini bosa olmaydi. Ayniqsa, badiiy kitoblar har bir kishida insoniy fazilatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Darhaqiqat kitob o'qimagan insonning ma'naviyati bo'lmaydi. Dunyoqarashi past bo'ladi, olam sirlarini bilmoq istasak ko'p kitob o'qimoq kerak. Zero, buyuk shoir va mutafakkir



Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma`naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai ”.

Xalqimiz tilida ham kitob o`qib bilim va munosib ta`lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug`ullanish, kasb-hunar o`rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko`p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Go`zallik – ilmu ma`rifat bilan”, “Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar”, “Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq”, “Baxt belgisi – bilim”, “Bilim – aql chirog`i”, “Beshikdan qabrgacha bilim izla”, “Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol”. Bu kabi purma`no va serhikmat naqlar kitob sevuvchi xalqimiz lug`atida ko`plab topiladi.

Bu safar ham kutubxonaga oshiqib kirib kelgan ilmiy hodimlarni ko`rib ko`nglim yorishib ketdi. Ha, hamkasblariz kitobga, kitobxonlik borasidagi qadim an`analarimizga qaytmoqda. “Kitobxonlikda ta`til bo`lmaydi” – bu ularning bugungi kundagi shioriga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 5-jild
2. Muallif : Jaloliddin Rumiy. Hikmatlar hazinasi
3. Ziyoviddin Rahim. Baxtli hayot sari

